**O‘ZBEKTISON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDDAGOGIKA UNIVERSITETI**
**KENGASHI BAYONNOMASIDAN KO‘CHIRMA**

**2024-yil 29. 08**
**Bayonnoma raqami:** 1
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**
**kengashi xonasi** (109-xona)

| | |
|---|---|
| **Kun tartibi:** | Universitetda Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish bo‘yicha maxsus ishchi guruh tuzish va uning tarkibini tasdiqlash |
| **Ma’ruzachi:** | G.Muxamedov – universiteti rektori |
| **Tinglandi:** | Ma’ruzachi G.Muxamedov universitetda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoniga, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” milliy dasturiga, shuningdek, QS va Times Higher Education (THE) reytinglarida barqarorlik mezonlari bo‘yicha universitet ko‘rsatkichlarini oshirish zaruratiga asosan *Sustainable Development Goals* (barqaror rivojlanish tamoyillari)ni amalga oshirish, QS va THE xalqaro reytinglarining “Barqarorlik” mezonlariga mos harakatlarni tashkil qilish, shuningdek, universitetning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatdan mas’uliyatli faoliyat yuritishini ta’minlash zarurligini asoslab berdi. Shuningdek, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida universitet darajasida 1strategik qarorlar, monitoring, hamkorlik va ta’lim komponentlarini qamrab oluvchi ishchi guruhni shakllantirish taklif etildi. |
| **So‘zga chiqdilar:** | B.Eschanov, O.Ortikov, S.Qorayev, G.Otamuxamedova, F.Berdiyeva va boshqalar ishchi guruh tarkibiga tegishli sohalar bo‘yicha mas’ul rahbar va xodimlarni jalb etish taklifini qo‘llab-quvvatladilar. |

Kun tartibidagi masala atroflicha muhokama qilinib,

**QAROR QILINDI:**

1. Barqaror rivojlanish maqsadlarini universitet faoliyatiga integratsiya qilish va tizimli amalga oshirish maqsadida BRM bo‘yicha ishchi guruh tashkil etilsin.

2. BRM ishchi guruhi quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

| **Taqsimot** | **Asosiy vazifalari** | **A’zolari** |
|---|---|---|
| **Strategiya va siyosat** | BRMni strategiyaga integratsiya qilish, tenglik, xilma-xillik, inkluzivlik siyosatini ishlab chiqish | B.Echchanov, O.Ortikov, S.Qorayev, D.Axmadjanov |
| **Ma’lumot va monitoring** | BRM indikatorlarini yig‘ish va monitoring qilish | Sh.Kuchkarov, N.Bozorov |
| **Ta’lim va ilmiy** | O‘quv rejalarga BRMni integratsiya | G.Otamuxamedova, |

| | | |
|---|---|---|
| **tadqiqotlar** | qilish, tadqiqot loyihalari | M.Boltaev |
| **Hamkorlik va tashqi aloqalar** | Mahalliy va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish | F.Berdieva, F.Risqimboyev |
| **Atrof-muhit va infratuzilma** | Ekologik tashabbuslar, "Net-Zero" strategiyasini ishlab chiqish | F.Ikramov, Sh.Kurbonov |
| **Targ'ibot va kommunikatsiya** | BRMlarni ommalashtirish, seminar va media tadbirlarini tashkil qilish | D.Rahmatov |
| **Talabalar va yoshlar guruhi** | BRM targ'ibotchilari, volontyorlar va yoshlar tashabbuslarini rivojlantirish | J.Abdusamatov, D.Turg'unpo'latov |

3. Ishchi guruh universitet miqyosida BRM bo'yicha hujjatlar, hisobotlar, tashabbuslar va xalqaro reytinglar uchun zarur materiallar tayyorlash, joriy monitoring va baholashni olib boradi.

4. Ishchi guruh faoliyati ustidan umumiy nazorat Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor B.Echchanov zimmasiga yuklatilsin.

---

**Kengash raisi** — **prof. G.I. Muxamedov**
**Kotib** — **F. A. Do'smanov**

**Ko'chirma asliga to'g'ri:**

**Kengash kotibi** — **F. A. Do'smanov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI